



YURIDIK TIL VA NUTQNING ZAMONAVIY TENDENSIYALRI

TURAKULOV BOYBURI KUZIMURATOVICH*IIV Surxondaryo akademik litseyi huquqshunoslik fani bosh o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada yuridik til va yuridik nutq, ularning o'ziga xos xususiyatlari, yuridik sohaga oid terminlar, yuridik til va yuridik nutqning urisprudensiya doirasida qo'llanishi va ahamiyati yuzasidan fikr bayon qilingan. Shuningdek, zamonaviy yuristlarning til birliklaridan, jumladan, lug'aviy, grammatik va uslubiy vositalardan nutq jarayonida to'g'ri va o'rinni foydalanishlari xususida bahs yuritilgan.

Kalit so'zlar: Yuridik til, yuridik nutq, yuridik soha, yurisprudensiya, grammatik birlik, lug'viy birlik, uslubiy vosita, gap qurilishi, uslubiy xususiyat, huquqiy fikr, termin, antiqiylik, aniqlik.

Adabiy tilning huquqshunoslik tarmoqlariga oid orfografik, leksik, grammatik va uslubiy xususiyatlari yuridik til hisoblanadi. Xalqning uzoq yillik tajribasi asosida yuzaga kelgan va huquqiy madaniytning ajralmas qismi bo'lgan yuridik tilning huquqiy soha rivojlanishida alohida o'rni mavjud. Ma'lumki, yuridik til o'ziga xos leksik birliklari, gap qurilishi, uslubiy xususiyatlari hamda huquqiy fikrlarni ifodalovchi terminlari bilan ajralib turadi. Barcha yuridik manbalar ushbu tilda yoziladi. Tergov jarayoni, sud, advokat faoliyati, qonunlar ifodasi ham yuridik til asosida ifodalanadi. Yuridik tilda turli xil o'rinsiz takrorlar, tushunarsiz ifodalar hamda ortiqcha sifatlashlar, ko'chma ma'noli so'zlarga o'rin yo'q.

Yuridik til rasmiy xususiyatga ega bo'lganligi uchun unda badiiy obrazli so'zlar, tasviriy vositalar, frazeologik birliklar kabi til vositalarini qo'llashga ehtiyoj tug'ilmaydi. Sababi yuridik tilning birlamchi belgisi uning rasmiy bo'yoqqa egaligidir. Yuridik tilning nufuzini belgilovchi omillardan qat'iylik, mantiqiylik, qisqalik, aniqlik kabi xususiyatlar uning nufuzini belgilab beradi. Ayniqsa, yuridik tilning tarkibiy qismi bo'lgan qonun tiliga alohida e'tibor qaratish darkor. Qonun tilida gap qurilishi



tushunilishi yengil bo‘lishi va oddiy fuqaro ham tez tushunib oladigan talablarga javob beradigan bo‘lishi lozim.

Bilamizki, qonun – jamiyatni tartibga solib turuvchi kuch, u inson manfaatlari va ehtiyojlarini himoya qiladi. Qonunning mazmun- mohiyati, sifati, nufuzi, so‘zsiz, til va nutq qoidalariga qay darajada rioya etilishiga bog‘liqdir. Jamiyatda qonunning ustuvorligi uning adabiy til me’yorlari asosida tuzilishi bilan belgilanadi. Qonun adabiy til me’yorlariga to‘laqonli javob bermas ekan, uning mazmunan va mantiqan tushunarli bo‘lishi kafolatlanmaydi. Qonun tili davlatning rasmiy yuridik tili hisoblanadi, shu bois uning tilida noaniqlik yoki biror kamchilik bo‘lishi mumkin emas.

Qonun faqat huquqshunoslar yoki yurisprudensiya sohasidagi mutaxassislar uchun qabul qilinmaydi, balki u davlatning barcha fuqarolari uchun chiqariladi. Shu sababli qabul qilinayotgan qonunlarning adabiy til normalariga to‘la javob berishi, tanlangan lug‘viy birliklar yengil va oson tushunilishi, gap qurilishi sodda va tushunarli bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Qonun matnini ishlab chiqishda mantiqiy izchillikka katta e’tibor berish zarur. Chunki Qonun mantiqan izchil tuzilmas ekan, uning amaliyotga tatbiq etilishi ham qiyin kechadi. Qonunlar mantiqan izchil bo‘lishi uchun adabiy til me’yorlari asosida tuzilishi kerak. Qonunning ustuvorlik darajasi ham uning sifatidadir. Sifat esa yuridik tilga qat’iy rioya qilish mahsulidir. Shuni inobatga olish zarurki, qonunning iste’molchisi xalq.

Xalq esa tushunarli, ravon tilde yozilgan qonunni to‘g‘ri anglaydi va unga amal qiladi. Yuridik nutq yuridik tilni, uning qonun-qoidalarini ongli idrok qilish asosida yurisprudensiya doirasida ifodali tuzilgan nutqdir. Yuristlar faqat to‘g‘ri nutq tuzish emas, balki uquvlilik hamda nutqiy chechanlikka ham e’tibor berishlari lozim. Ushbu soha vakillari til vositalaridan o‘rinli foydalangan holda huquq sohasida maqsadga muvofiq so‘zlash va yoza olish san’atini egallashlari maqsadga muvofiqlikdir. Shundan kelib chiqadiki, zamonaviy yuristlar, avvalo, ravon va mazmunli, oddiy va tushunarli fikrlash madaniyatiga ega bo‘ladilar.



Yuristlar fikrni adabiy til me'yorlariga muvofiq to'g'ri, erkin, aniq, mantiqan izchil, yoqimli va ta'sirli bayon qilishlari zarur. Madaniyatli yurist til birliklaridan, jumladan, lug'aviy, grammatik va uslubiy vositalardan nutq jarayonida to'g'ri va o'rinali foydalana oladi. Nutq madaniyati kishidan til boyligini — lug'aviy birliklar, grammatika, orfoepiya, orfograflya, nutq uslublari va ularning har biriga xos xususiyatlar hamda me'yormi yuqori darajada bilishni talab etadi. Bundan tashqari, nutq madaniyati kishining shaxsiy madaniy saviyasi bilan ham bog'liqdir. Shunday ekan, jamiyatning ziyoli qatlamiga mansub yurist kadrlarning nutqiy savodxonlik darajasi va madaniyati yuqori bo'lishi talab etiladi.

Yuristlar ijtimoiy hayotda insonlar bilan muloqotda bo'ladilar, har xil toifadagi kishilar (guvoqlar, jabrlanuvchilar, aybdorlar, jinoyatchilar va b.) bilan muloqot qiladilar. Ayniqsa, tergov va sud jarayonida o'z fikrlarini bayon qilisda o'ta ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo'lishlari ularning tilga bo'lgan munosabatida yaqqol namoyon bo'ladi. Qolaversa, yuristlar faoliyatida rasmiy hujjatlarning o'rni beqiyos. Tergov ishlari bilan bog'liq turli bayonnomalami to'ldirish, sud hukmi, ayblov nutqini tayyorlash va boshqa rasmiy hujjatlami o'ta savodxonlik bilan tayyorlash ham ularning til vositalardan foydalana olish mahoratiga bog'liqdir. Demak, yurist kadrlarning o'zi mohir notiq, nutqi esa mantiqli va ta'sirli bo'lishi bugungi kunning talablaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T., "O'zbekiston", 2008
2. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni. T., 1995.
3. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi., T., "Adolat", 2010.
4. Mahmudov N., va b. Davlat tilida ish yuritish (9-nashri). – Toshkent, 2020.